

## **BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI DARSLARNI TASHKIL ETISH DARS SAMARADORLIGINI MUHIM OMILI.**

*Tolipov Rustam Mamasoliyevich*

*Qo'qon DPI boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola "Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlar orqali darslarni tashkil etish dars samaradorligini muhim omili" mavzusida bo'lib, unda matematika darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar va ularning turlari, didaktik o'yinlar orqali matematika darslarini samaradorligini oshiruvchi omillar haqida fikr mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** qoida, didaktik o'yin, bilmasvoyning xatolari o'yini, sonli vagonchalar o'yini, tez yurar poyezd o'yini.

**Аннотация:** В данной статье на тему «Организация уроков через дидактические игры на уроках математики в начальной школе является важным фактором эффективности урока», в ней описаны дидактические игры и их виды, применяемые на уроках математики, уроки математики через дидактические игры. даны мнения о факторах, повышающих эффективность.

**Ключевые слова:** правило, дидактическая игра, игра ошибок неизвестного, игра числовых вагонов, игра скоростного поезда.

**Annotation:** This article is on the topic "The organization of lessons through didactic games in elementary school mathematics lessons is an important factor in the effectiveness of the lesson", it describes the didactic games used in mathematics lessons and their types, mathematics lessons through didactic games opinions are given about factors that increase efficiency.

**Key words:** rule, didactic game, game of mistakes of the unknown, game of number cars, high-speed train game.

O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqish va fan bo'yicha bilimlarining puxtaligi o'qituvchining darsni tashkil qilish va fanni o'qitish metodikasiga bo'g'liq. Didaktik o'yinlarni qo'llanishi darsda har bir o'quvchining faol ishtirok etishga erishishga yordam beruvchi usullardan biridir. Didaktik o'yinlar turli shaklda va maqsadda darsning turli bosqichlarida qo'llanadi. O'quvchilarning [qiziqishi](#), zavqi, birgalikdagi harakati o'qituvchi mehnatiga mukofot bo'ladi. **Har bir o'yinni o'tkazishda quyidagi tartibga amal qilinadi:** O'qituvchi o'yin nomini va uning maqsadini e'lon qiladi; O'quvchilarning vazifasini va o'yinning tartib – [qoidalarini tushuntiradi](#); Har bir o'quvchiga ro'llarni ( agar o'yin ro'lli bo'lsa ) bo'lib beradi. Agar o'yinda o'quvchilarning [faqat bir qismi ishtirok etsa](#), qolgan o'quvchilarga nazoratchi, hakam va kuzatuvchi vazifalari topshiriladi. O'yinni musobaqa tarzida o'tkazish o'quvchilar faolligini oshiradi. O'yinni jonlantiradi. O'qituvchi kamroq ball olga guruhga qo'shimcha [topshiriq berib](#), ballar sonini ko'paytirish, xatolarni tuzatish imkonini berish mumkin. O'yin oxirida yakuniy xulosa va ballar aytiladi. Xatolar tahlil qilinadi, xato qilgan o'quvchilarning keyingi safar e'tiborliroq bo'lishiga chaqiriladi. Hamkorlikda ishlagan guruhda alohida tilga olinadi. O'yinlar guruxga va alohida o'yinchilarga mo'ljallangan ham bo'lishi mumkin. O'yinni [tshkil qilish](#), o'tkazish va unga rahbarlik qilish o'qituvchidan katta mahoratni talab etadi. O'qituvchi har bir o'yinni o'tkazish uchun alohida tayyorgarlik ko'radi. O'yinni tanlaydi, otkazish rejasini tuzadi va jihozlarni tayyorlaydi. Eng asosiy e'tibor o'yinda sinfnig har bir o'quvchisi qatnashishiga qaratiladi. Agar o'yinda hamma o'quvchining qatnashishning iloji bo'lmasa, o'yinni hamma o'quvchi o'ynab bo'lguncha ketma – ket qaytarishiga to'g'ri keladi. Aks holda o'quvchilarda ichki norozilik hissi tug'ilishi mumkin. Didaktik o'yinlarning mohiyati ularni darsning hamma bosqichlarda qo'llash imkonini beradi. O'yin davomida o'quvchilar xatoga yo'l qo'ysa, uni tezlik bilan tuzatish imkoni beriladi, umumiy o'yin kayfiyatini buzmaslik uchun xatolarni o'yin [yakunlangandan keyin aytiladi](#), o'yinni to'xtatish bilan jazo berishga yo'l qo'yilmaydi. Mavzuga mos ravishda darsda o'qituvchi bir va ikki didaktik o'yinni o'tkazishi mumkin. Masalan: “No'merlash” mavzusida

o'tkaziladigan o'yinlar sonlarni hosil qilish, qatordagi o'rinni topish, [predmetlarini sanash](#), sonlarni taqqoslash, son tarkibini o'rganish maqsadlarda o'tkaziladi. Bolalarni matematikani o'rganishga tayyorlashda ishni "matematik o'yin" o'tkazishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

*Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?*

Bolalarga har bir o'yinni o'rgatishda muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yinning o'tkazilish formalari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladigan o'yinlar ta'lim berish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir. Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan, biz «Jimjitlik» o'yinining 5—7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik; «Nima o'zgardi» tipidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi va hokazo. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan va shu singari o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning zehnan o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bo' tarzda tuzilish xususiyatlari

o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan o'ynaydilar, o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. Didaktik o'yinlar hamjihatlik va imtizonlilikni [tarbiyalashga yordam beradi](#), chunki har bir o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. Shulardan **"Bilmasvoyning xatolari" o'yini**. O'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishoralari haqidagi bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalarini, mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish. O'yinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bittadan o'quvchi doskaga chiqadi va xatolarini tuzatadi.

I-qator  $10-7=4$

$10-3=6$

$7-3=5$

II-qator  $3+2=6$

$4+3=8$

$4+1=6$

**"Sonli vagonchalar" o'yini.** 2 sonini 2, 3, 4, 5, 6 sonlariga ko'paytirishni mustahkamlash darslarida foydalanish mumkin. O'yin maqsadi: o'quvchilarni hozirjavoblikka, muslaqil fikrlashga o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish. Tarqatmalar stol ustiga yoyib qo'yiladi. O'yin jihozi:

1-guruh:  $2\cdot3$ ;  $2\cdot6$ ;  $7\cdot2$ ;  $9\cdot2$ ;  $5\cdot2$ ;  $4\cdot2$ ; ...

2-guruh:  $2\cdot4$ ;  $2\cdot9$ ;  $2\cdot7$ ;  $8\cdot2$ ;  $2\cdot5$ ; ...

O'yinning borishi: O'quvchilar 7 kishidan iborat 2 guruhga bo'linadilar. Guruh a'zolari stol ustiga qo'yilgan tarqatmalarni tanlab, ifodaning qiymatiga ko'ra sonlar tartib bilan vagon bo'lib qo'l ushlab turadilar. Poyezdni to'g'ri tuzgan guruh g'olib chiqadi.

### **"Tez yurar poyezd" o'yini**

O'yin maqsadi: O'quvchilarning intellektual bilim salohiyatini oshirish. O'yin jihozi: doskaga bir - biriga qarama - qarshi turgan poyezd rasmi bor ko'rgazma ilinadi. O'yinning borishi: Doskaga 2 o'quvchi chiqadi. O'qituvchi bergan savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchining poyezdi oldinga surilaveradi. "Marra"ga birinchi bo'lib yetib kelgan o'quvchi g'olib bo'ladi.

Savollar: 1. To'g'ri top'rtburchak nima?, 2. Kvadrat nima?, 3.  $1 \text{ dm} = ? \text{ s.d.m}$

4. To'rtburchakning yuzi nimaga teng? kabi savollardan foydalanish mumkin.

Ayniqsa o'yin jarayonida ularning idroki, zehni, xotirasi, bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlana boshlaydi, ijodiy qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni oson egallashga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur, aniq belgilash ta'lim sifatini mazmunini samarali bo'lishiga zamin hosil qiladi. O'yin esa bolaning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyat bo'lib, uning bu faoliyati obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatini ma'lum darajada o'zida aks mustahkamlanishidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik yoshdagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir. Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv [materialini aniqlashga](#), mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Muxtasar qilib aytganda didaktik o'yinlardan foydalanib darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirish, fanlar aro bog'lanish va o'quvchilarda egallangan bilimni hayotda qo'llay olishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Normatov, A. A., Tolipov, R. M., & Musayeva, S. H. Q. (2022). МАКТАБЛАРДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О'QITISHNING DOLZARB MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1068-1075.
2. Tolipov, R., & Yusupov, M. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE FORM OF EDUCATION IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF THE LESSON. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1633-1637.
3. Толипов, Р. М. (2023, February). СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ ИНДУКЦИИ, ДЕДУКЦИИ И АНАЛОГИИ ПРИ РЕШЕНИИ ПРИМЕРОВ И ЗАДАЧ В МЛАДШИХ КЛАССАХ. In *E Global Congress (Vol. 2, pp. 36-46)*.
4. Mamadalievich, Y. M., & Mamasolievich, T. R. (2022). THE NEWSPAPER "SADOI FERGHANA" IS THE NEWSPAPER OF THE FERGHANA REGION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1236-1240.

5. Tolipov, R. (2022). Characteristics of the levels of formation of the control action in younger schoolchildren. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 92-99.
6. Yusupov, M. M. (2022). FEATURES OF THE ORGANIZATION AND CONDUCT OF EDUCATIONAL PRACTICE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 195-200.
7. Normatov, A. A., Tolipov, R. M., & Musayeva, S. H. Q. (2022). MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINI O 'QITISHNING DOLZARB MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1068-1075.
8. Mirhojiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
9. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
10. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. Scienceweb academic papers collection.
11. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 78-82.
12. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
13. Abdulxayeva, M. (2023). O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. Interpretation and researches, 1(1).
14. Tadjibayeva, R. (2023). ELECTRONIC LEARNING OPPORTUNITIES IN THE PROCESS OF DIGITALIZATION OF EDUCATION. *Journal of Innovation, Creativity and Art*.
15. Muhammadjon-qizi, T. R. (2023). ELECTRONIC LEARNING OPPORTUNITIES IN THE PROCESS OF DIGITALIZATION OF EDUCATION. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 246-249.
16. Tadjibaeva, R. Methodology of Working on Numerical and Variable Expressions. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
17. Tadjibaeva, R. Using The Exercise System To Grow Students' Thinking Skills. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
18. Tadjibayeva, R. (2023). O'qituvchi mahoratini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Scienceweb academic papers collection.

19. Tadjibayeva, R. (2023). Ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish. KASB-HUNAR TA'LIMI.
20. Shavkatovna, A. M. (2023). Morphological Characteristics of Unusual Compounds Found in Literary Text. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 83-88.
21. Shavkatovna, A. M. (2023). Morphological Characteristics of Unusual Compounds Found in Literary Text. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 83-88.
22. Akbarova, M. S. (2022). LINGUOPOETIC FEATURES OF UNUSUAL COMPOUNDS IN THE LITERARY TEXT. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(05), 73-76.
23. Akbarova, M. S. Features of Linguopoetic Analysis of Literary Text. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
24. Makhramovna, B. D. (2023). Methodical Views of Nizamiddin Mahmudov. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 149-154.
25. Makhramovna, B. D. (2023). SYMBOL OF LANGUAGE AND NATION. *Conferencea*, 135-140.
26. Makhramovna, B. D. (2022). NIZOMIDDIN MAHMUDOV'S VIEWS ON MODERN LINGUISTICS. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 312-315.